

## HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI DARSLARIDA O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARIDAN FOYDALANISH

*U.Abdurasulova,*

*Is'hoqxon Ibrat nomidagi*

*Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti, PhD*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili darslarida o'qitishning zamonaviy usullarini qo'llash masalalari, interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarning ahamiyati, ularning samaradorligi hamda dars jarayoniga tatbiq etish yo'llari tadqiq etilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni ona tili darslarida qo'llashning amaliy ahamiyati, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ona tili, zamonaviy metodlar, interfaol ta'lim, innovatsion texnologiyalar, kommunikativ kompetensiya, nutq madaniyati, markazlashgan ta'lim, raqamli ta'lim texnologiyalari

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ НА СОВРЕМЕННЫХ УРОКАХ ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация:** В данной статье исследуются вопросы применения современных методов преподавания на уроках родного языка, значимость интерактивных методов и инновационных технологий, их эффективность и пути внедрения в учебный процесс. Также проанализировано практическое значение использования цифровых технологий на уроках родного языка и их роль в развитии коммуникативных компетенций учащихся.

**Ключевые слова:** родной язык, современные методы, интерактивное обучение, инновационные технологии, коммуникативная компетенция, культура речи, централизованное обучение, цифровые образовательные технологии.

## USING MODERN TEACHING METHODS IN CURRENT UZBEKISTAN LITERARY LANGUAGE LESSONS

**Annotation:** The article investigates the application of modern teaching methods in native language lessons, emphasizing the significance of interactive methods and innovative technologies, their effectiveness, and ways of integrating them into the teaching process. Additionally, it analyzes the practical importance of using digital technologies in native language instruction and their role in developing students' communicative competencies.

**Keywords:** native language, modern methods, interactive education, innovative technologies, communicative competence, speech culture, learner-centered education, digital educational technologies.

### KIRISH

Til - millat ma'naviyatining ko'zgusi, milliy o'zlikni anglash, milliy madaniyatni asrash va rivojlantirishning muhim vositasidir. Ona tilini o'qitish,

avvalo, talabalarda til bilimlarini shakllantirish, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, nutq madaniyatini oshirish bilan birga, ularda milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6084-son Farmoni[1] hamda 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni [2] ona tili ta'limini rivojlantirish, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida muhim vazifalarni belgilab berdi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda, o'qitishning yangi metodlari, innovatsion yondashuvlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda. Ona tili o'qitishda ham zamonaviy usullardan foydalanish talabalarning o'quv mashg'ulotlariga qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quv materialini samarali o'zlashtirishga yordam beradi.

Ta'limning mazmuni oldiga qo'yilgan talablar tobora oshib borayotgan hozirgi davrda faqat darslik bilan cheklanib qolmay, balki barcha imkoniyatlarni to'la ishga solish, ta'lim oluvchilarning faolligini oshirish eng asosiy vazifalardan biridir. O'zbek tili darslarini bugungi kun talablaridan kelib chiqib, eng samarali ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish eng muhim vazifalardan biridir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ona tili o'qitish metodikasi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar, amaliyotchi pedagoglar tomonidan tadqiq etilgan. O'zbek tili o'qitish metodikasi sohasida A.G'ulomov, M.Qodirov, Y.Abdullayev, K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, N.Mahmudov kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

A.G'ulomov o'zining «Ona tili o'qitish metodikasi» nomli darsligida «Ona tili»ni o'qitish sohasida yuz bergan yangiliklar va o'zgarishlar hisobga olingan holda, bu fanni o'qitishning metodik jihatlarini bayon qilgan. Shu bilan birga, ilmiy-nazariy ma'lumotlarni amaliyotga tatbiq etish usullari yoritib berilgan [3].

B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovlarning «O'zbek tili o'qitish metodikasi» [4] deb nomlangan o'quv qo'llanmalarida talabalar va o'quvchilarning kommunikativ savodxonligini oshirish, ona tili mashg'ulotlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, til darslari samaradorligini hozirgi zamon talablari darajasiga olib chiqish va o'qitish usul hamda vositalari bilan birgalikda darslarda foydalanish uchun topshiriqlar va testlar berilgan.

K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyevlarning «Ona tili o'qitish metodikasi» [5] darsliklarida boshlang'ich sinf ona tili o'qitish metodikasi kursining maqsad va vazifalari, bo'limlari: savod o'rgatish metodikasi, sinfda va sinfdan tashqari o'qish metodikasi, fonetika, grafika, grammatika, so'z yasalishi, imlo o'qitish metodikasi va o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish metodikasi ta'limi oldiga qo'yilgan zamonaviy talablar hamda grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim imloviy qoidalarni o'zlashtirish haqida batafsil ma'lumot berilgan. O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov, A.Hamroyevlarning «Ona tili didaktikasi» [6] darsliklarida ona tili didaktikasining tamoyillari xususida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, ona tili ta'limida foydalanish mumkin bo'lgan metodlar, ona tili ta'limining o'ziga xos xususiyatlari, lingvistik mashq va ularning turlari, ta'lim texnologiyasi, ta'limni optimallashtirish kabi masalalar ham o'z ifodasini topgan. M.Abduraimova, M.Qodirov, G.Abdumatovalar muallifligida yaratilgan «Ona tili. 8-sinf. O'qituvchi metodik qo'llanmasi» [7] da «Mustaqil so'z turkumlari» mavzusini takrorlashda amaliy topshiriqlardan foydalanish bo'yicha namunalar keltirilgan. T.Yusupovanning «Sintaksisni morfologiyani takrorlash bilan bog'lab o'rganish metodikasi» [8] deb nomlangan monografiyasida 5-, 8-sinf ona tili darslarida sintaksisni morfologiyani takrorlash bilan bog'lab o'rganish metodikasi yoritilgan bo'lib, takrorlash darslarining ahamiyati va samaradorligi haqida qimmatli fikrlar aytib o'tilgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ona tili darslarida zamonaviy metodlarning ahamiyati: Zamonaviy ta'lim paradigmasida o'qituvchi rolining o'zgarishi, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasining rivojlanishi, o'qitishning interfaol shakllarining joriy etilishi ta'lim

jarayoniga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Ona tili o'qitishda zamonaviy metodlar qo'llashning quyidagi afzalliklarini ta'kidlash mumkin:

motivatsiyani oshirish – zamonaviy metodlar ta'lim oluvchilarning ona tili darslariga qiziqishini, faolligini oshiradi;

mustaqil fikrlashni rivojlantirish – talaba tayyor bilimlarni passiv qabul qiluvchidan faol bilim yaratuvchiga aylanadi;

kommunikativ kompetensiyani shakllantirish – og'zaki va yozma nutq ko'nikmalari rivojlanadi;

hamkorlikda o'qitish – guruhda ishlash, fikrlarni o'rtoqlashish, muloqot qilish ko'nikmalarini egallaydilar;

ijodiy tafakkurni rivojlantirish – o'z g'oyalarini erkin ifoda etish, muammolarni ijodiy hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradilar;

o'quv jarayonining individuallashtirilishi – har bir ta'lim oluvchining shaxsiy qobiliyatlari, imkoniyatlari hisobga olinadi;

bilimlarni amaliyotda qo'llash – nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari rivojlanadi.

Ona tili darslarida qo'llaniladigan yangi interfaol metodlar

«Kvest» texnologiyasi. Qiziqarli topshiriqlar, muammolar va vazifalarni hal qilish orqali bilim olishga jalb qiluvchi o'qitish texnologiyasi. Bunda ta'lim oluvchilar «qidiruv» jarayonida ma'lum bilim va ko'nikmalarni egallaydilar.

Kvestda ishtirok etish uning ishtirokchilari o'rtasida muloqotga bo'lgan ehtiyojni rag'batlantiradigan universal o'quv faoliyatini shakllantirishga yordam beradi. Kvestlardan foydalanish o'qituvchiga o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning an'anaviy shakllaridan voz kechish va ta'lim maydonini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi[9].

«Kubik» metodi: «Kubik» metodi o'rganilayotgan mavzuni turli tomondan tahlil qilish, ta'lim oluvchilarning fikrlash va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan usul.

Ushbu metoddan darsni mustahkamlash vaqtida foydalansa yaxshi natija beradi. Masalan, mavzu o'tilgandan so'ng unda biror tushuncha shakllanadi. Shakllangan tushunchani quyidagicha yozish taklif etiladi:

- 1) tasvirlang;
- 2) taqqoslang;
- 3) o'xshating;
- 4) tahlil qiling;
- 5) ishlating;
- 6) foydali va zararli tomonlari[10].

### XULOSA

O'zbek tili darslarida o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish nafaqat talabalarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, balki ularni hayotga tayyorlash, XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish, milliy qadriyatlarni anglash, o'z ona tilini sevishtirish va ardoqlashga o'rgatishning muhim vositasidir. Shuning uchun, ta'lim tizimida zamonaviy metodlarni keng joriy etish, o'qituvchilarning bu boradagi bilim va ko'nikmalarini oshirish, metodik ta'minotni takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6084-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni.
3. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 380 b.
4. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиядова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 219 б.
5. Қосимова К., Матчонов С., Ғуломова Х ва б. Она тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ношир, 2009. – 352 б.
6. Розиков О.Р., Махмудов М.Х ва б. Она тили дидактикаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – 382 б.
7. Абдураимова М ва б. Она тили. 8-синф. Ўқитувчи методик қўлланмаси. – Тошкент: Чўлпон, 2006. – 144 б.
8. Юсупова Т. Синтаксисни морфологияни такрорлаш билан боғлаб ўрганиш методикаси. Монография. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. – 179 б.
9. Muhammadovna N va b. Boshlang'ich ta'limda o'quv-kvest texnologiyasidan foydalanishning nazariy jihatlarlari // Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 5 | 2022.

10. Ismanova G. Matematika o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish // Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723.